

BILIM VA MALAKALARNI BAHOLASH AGENTLIGI

Bilimningga ishon va muvaffaqiyatga erish!

BILIM VA MALAKALARNI BAHOLASH AGENTLIGI

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI, AKADEMIK LITSEYLAR
VA KASB-HUNAR KOLLEJLARI O'QUVCHILARINING
UMUMTA'LIM FANLARI BO'YICHA
OLIMPIADASINING IV (RESPUBLIKA) BOSQICHI
ISHTIROKCHILARI UCHUN

ONA TILI VA ADABIYOT
FANIDAN
TEST TOPSHIRIQLARI KITOBI

Ishtirokchining familiyasi, ismi va otasining ismi

Imzo

Ushbu test varianti 30 ta (1–30) topshiriqdan iborat.

Test topshirig'i uchun ajratilgan ball har bir test topshirig'ida aks ettirilgan.

Kitobda yopiq va ochiq turdagi test topshiriqlari mavjud:

– yopiq turdagi test topshiriqlarida bitta javobni (A, B, C yoki D) tanlang va javoblar varaqasidagi topshiriq raqamiga mos qatorga yozing;

– ochiq turdagi test topshiriqlarining javobini javoblar varaqasidagi topshiriq raqamiga mos qatorga aniq va tushunarli tarzda yozing;

– moslashtirishni talab qiluvchi yopiq test topshiriqlari uchun umumiy oltita (A–F) javob varianti berilgan, uchta topshiriqqa (28-, 29-, 30-test topshiriqlariga) ushbu javoblar orasidan mos ravishda bittadan javob tanlang va javoblar varaqasiga belgilang.

1. [2,4 ball]

Imloyiy jihatdan **to'g'ri yozilgan** so'zlar qatorini aniqlang.

- A) faromush, kristal, nodomat
- B) mojaro, intervyu, iftixor
- C) daromad, mineral, dubilg'a
- D) koordinata, islohat, ijtimoiy

2. [2,4 ball]

Matnda qo'llangan tinish belgilari haqidagi **to'g'ri hukmni aniqlang.**

Poyonsiz Mongoliya dashtlari... Tekisliklarda birorta ham daraxtni uchratmaysiz – hamma yoqda ko'm-ko'k, past bo'yli o'tlarni ko'rasiz. Tabiatining o'ziga xos jihatlari bor: bir tarafida tog'lar qad ko'targan, soylıklarda esa moviy ko'llar tovlanib turadi.

- A) Uyushiq bo'laklardan keyin qo'llangan umumlashtiruvchi so'zdan oldin tire qo'llangan.
- B) Uyushiq bo'laklardan oldin qo'llangan umumlashtiruvchi so'zdan keyin ikki nuqta qo'llangan.
- C) Bog'langan qo'shma gap qismlari orasida vergul tinish belgisi qo'llangan.
- D) Tugallanmagan fikrni ifodalab kelgan ikki bosh bo'lakli gap oxirida ko'p nuqta qo'llangan.

3. [2,4 ball]

Nutqda o'zaro sinonimlik hosil qila oluvchi so'zlar to'g'ri **moslashtirilgan javobni belgilang.**

| | | | |
|---|-------|---|-----------|
| 1 | yaqin | a | uddaburon |
| | | b | qariyb |
| | | c | qattiq |
| | | d | qalin |
| | | e | tez |
| | | f | puxta |

- A) 1-b, d, e; 2-a, c, f
- B) 1-b, d, f; 2-a, c, e
- C) 1-a, d, e; 2-b, c, f
- D) 1-b, c, e; 2-a, d, f

4. [2,4 ball]

Gapdagi qo'shimchalar haqida berilgan to'g'ri hukmni **aniqlang.**

*Qoruncha xazinang bo'lsa ham agar,
Farzandingga o'rgat, albatta, hunar.*

*Boylik, davlatingga suyanma zinhor,
Boylik bebaqodir, davlat beqaror.*

- A) Ikki xil nisbat qo'shimchasi ishtirok etgan.
- B) O'zaro shakldoshlik hosil qilgan munosabat shakllari ishtirok etgan.
- C) Fe'lga xos ikki xil lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha ishtirok etgan.
- D) So'z yasovchi qo'shimchalar yordamida ikki xil turkumga mansub so'zlar yasalgan.

5. [2,4 ball]

Berilgan gaplar va ularda ishtirok etgan fe'l shakllari **to'g'ri moslashtirilgan** javobni aniqlang.

1. *Suv boshini to'smoq
mumkin bel bilan,
Toshib ketsa, o'tib bo'lmas fil
bilan.*

2. *Gerdaygan ko'rinar
ko'zingga nechuk,
Sen ham kibr etsang,
o'shanday xunuk.*

- a) ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi;
- b) otlashgan sifatdosh;
- c) harakat nomi;
- d) qo'shma fe'l;
- e) o'timli fe'l.

- A) 1 – a, c, e; 2 – b, d
- B) 1 – b, c, e; 2 – a, d
- C) 1 – b, d; 2 – a, c, e
- D) 1 – b, c; 2 – a, d, e

6. [2,4 ball]

Gap haqida berilgan **XATO** hukmni toping.

Osoyishta iyun tonglaridan biri edi. Kuchli dovul boshlandi. Noma'lum va notinch dengiz shovqinidan, mavhumlikdan vahimaga tushar edim. Nihoyat, yerni – Alyaskaning janubiy sohilini ko'rgan dengizchilarning quvonchli suroni eshitildi.

- A) Vositali to'ldiruvchi uyushgan.
- B) Vositasiz to'ldiruvchi ajratilgan.
- C) Egasi ma'lum gap ishtirok etgan.
- D) Egalar bir xil turkum bilan ifodalangan.

7.

[1,7 ball]

Hikoyalar va ular haqida berilgan ma'lumotlar **to'g'ri moslashtirilgan** javobni aniqlang.
DIQQAT! Ikkita xato ma'lumot mavjud.

| | |
|----------------------------|---|
| <p>1 "Muzqaymoq"</p> | <p>a tuhmat bilan qamalib ketgan ziyoli inson haqida so'z borgan</p> |
| <p>2 "Qoplon"</p> | <p>b front ortida mehnat qilayotgan xalq matonati haqida so'z borgan</p> |
| <p>3 "Qorako'z majnun"</p> | <p>c o'zligiga xiyonat qilgan kimsa hamda sadoqatli it obrazlari zidlantirib tasvirlangan</p> |
| | <p>d paxta terimiga mafkuraviy tus berilishining salbiy oqibatlarini fosh etilgan</p> |
| | <p>e moddiy manfaat ilinjida andishani unutgan kimsalarga xos illatlar fosh etilgan</p> |

- A) 1-d, 2-c, 3-a
 B) 1-a, 2-e, 3-c
 C) 1-a, 2-d, 3-e
 D) 1-e, 2-a, 3-c

8.

[1,7 ball]

Sharof Boshbekovning "Temir xotin" asaridan olingan ushbu parchada **elektromagnit to'qlinlari** qanday badiiy tushunchani ifodalagan?

"...men elektromagnit to'qlinlari tarqatayapman ... qirg yildan beri. Sen **elektromagnit to'qlinlari** tarqatayapasan ... tug'ilganingdan beri. Eshmat tarqatayapti, Abdurayim, Mamarayim tarqatayapti – qabul qiladigan apparat yo'q! Shuning uchun, Qumri, har bir idoraning tepasida lokatar bo'lishi kerak. Bitta bayroq, bitta lokator! Bitta bayroq, bitta lokator. Hozir-chi... Faqat bitta bayroqning o'zi turibti... "

- A) xalqning azaliy orzusi bo'lgan ozodlikka intilish tuyg'usini
 B) oddiy xalq ruhiyatida hamisha mavjud bo'ladigan norozilik kayfiyatini
 C) oddiy xalqning hukumat tomonidan e'tiborsiz qoldirilayotgan dardini
 D) oddiy xalqning dardini eshita oladigan hukumatga bo'lgan ishonchni

9.

[1,7 ball]

Quyidagi she'riy parcha haqidagi to'g'ri hukmni **aniqlang**.

*Iymanibroq turar ota poygakda,
 Ko'ksida yulduzi bir qo'li mayib...
 Ichkarida esa oppoq choyshabda
 Jahonning umidi yotar jilmayib.*

- A) Tushkunlik holati aks etgan.
 B) Xavotirlanish hissi ifoda etilgan.
 C) Noumid ota obrazi aks etgan.
 D) Qahramon jangchi tasviri bor.

10. [1,7 ball]

Uilyam Shekspirning "Hamlet" tragediyasi haqidagi **to'g'ri hukmni** aniqlang.

- A) Mohir qilichboz Laert otasining o'limiga sababchi bo'lgan shahzoda Hamletni duelga chorlaydi.
- B) Klavdiy Hamletning ko'nglini ko'tarish maqsadida Angliyaga boj undirib kelish uchun jo'natadi.
- C) Ofeliya sobiq qirolning o'limi haqidagi haqiqatni bilib qolgach, zudlik bilan Hamletni ogohlantiradi.
- D) Hamlet Ofeliyaning qalbida muhabbat olovini yoqish maqsadida sahna tomoshasini uyushtiradi.

11. [2,4 ball]

Qaysi javobda "Yulduzli tunlar" romanidagi **Malika Bayda** obraziga tegishli ma'lumot berilgan?

- A) Valiahd shahzoda va hukmdor orasidagi munosabatlarning yanada keskinlashuviga sabab bo'ladi.
- B) Dushman podshohning hiylasiga aldanib o'z o'g'lining ayanchli o'limiga sabab bo'ladi.
- C) Mag'lub hukmdorning o'limi uchun qasd olish maqsadida fotih podshohni zaharlaydi.
- D) Qamalda qolgan hukmdorni qutqarish uchun dushman podshohga turmushga chiqadi.

12. [1,7 ball]

"Sohibqiron" dramasi Amir Temur nutqidan olingan parchadagi qaysi **so'z** Vatan tushunchasini ifoda etgan?

Temur

*O'ylab ko'ring,
Agar ulkan bir qayrag'ochga
O'zga jonzod yaqinlashsa,
O'sha zahoti
Qayrag'ochda oshyon qurgan jam'i parranda
Chiyillashib, chuvullashib jangga shaylanar.*

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

13. [0,9 ball]

Quyidagi ruboiyning raviysini **aniqlang**.


*Necha bu falak solg'usi g'urbatqa meni,
Har lahza tugangusiz mashaqqatqa meni.
Ne chora qilay, netayki, Tengri go'yo
Mehnatni menga yaratdi, mehnatqa – meni.*

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

14. [0,9 ball]

Ajratib ko'rsatilgan har uchala so'z bilan ma'nodoshlik hosil qila oladigan so'zni **yozing**.




Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

15. [1,7 ball]

Raqamlab ko'rsatilgan shakldosh iboralarning ikkinchisi qanday ma'no anglatadi?



Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

16. [1,7 ball]

Quyidagi gapda tushirib qoldirilgan **tinish belgilarining to'g'ri ketma-ketligini** yozing.

Uch narsa uch narsasiz sobit va poydor bo'lmaydi mol savdosiz ilm bahssiz va davlat siyosatsiz deb yozadi Sa'diy Sheroziy

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

17. [0,9 ball]

Gapdagi **nisbiy sifatning ma'no turini** aniqlang.

Bu haybatli binoning gumbazi och moviy rangda bo'lib, g'ishtin devorlarining qalinligi – olti metr. Inshoot uzun yo'lak tarzida bino qilingan.

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

18. [0,9 ball]

Gapdagi ko'p nuqta o'rniga mazmun va grammatik jihatdan mos keluvchi yordamchi so'zni **yozing**.

Inson go'zalligi nafaqat uning tashqi qiyofasida, ... uning ruhiyatida ham aks etmog'i lozim, chunki asl go'zallik ichki olam go'zalligidir.

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

19. [0,9 ball]

Gapda ajratib ko'rsatilgan so'z **tobelangan hokim so'zni** aniqlang.

Dual ta'lim ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi.

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

20. [0,9 ball]

Gapdagi boshqa bo'laklar bilan grammatik aloqaga kirishmaydigan bo'lakning **sintaktik** vazifasini yozing.

Ey ko'zimning qorasi, odamlar bilan murosasiz muomala qilish ham, yaxshi muomala qilish ham – hammasi sadaqa – savobli amaldir, buni unutm.

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

21. [0,9 ball]

Berilgan parchadagi to'liqsiz gapda qaysi gap bo'lagi tushib qolgan?

Donishmandlar bunday deganlar: "Qaroqchi sultondan qo'rqadi, o'g'ri – posbondan, qallob – chaqimchidan".

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

Matnni o'qing va quyidagi topshiriqlarni bajaring.

QUYOSH SISTEMASI

Quyosh o'z atrofida aylanadigan sayyoralar bilan birgalikda Quyosh tizimini tashkil etadi. Bizning Quyosh tizimida sakkizta sayyora mavjud. [1] *Biz yashaydigan Yer ham bu sayyoralar qatoriga kiradi.* Bizning Yerimizdan tashqari Quyosh atrofida Merkuriy, Venera, Mars, Yupiter, Saturn, Uran va Neptun ham aylanadi. Uran va Neptunni teleskop yordamidagina ko'rish mumkin.

Sayyoralar ikki guruhga bo'linadi. Quyoshga yaqinlari "ichki sayyoralar" deb atalib, ularga Merkuriy, Venera, Yer va Mars kiradi. Bu sayyoralar zichligi yuqori, yuzasi qattiq bo'lib, ular orasida eng kattasi bizning sayyora – Yerdir. Quyoshdan olisdagi sayyoralar Yupiter, Saturn, Uran va Neptun bo'lib, ular Yerdan ancha katta. Bu tashqi sayyoralar gigant sayyoralar deb ham ataladi. Yupiterning massasi Yerning massasidan 300 marta katta. [2] *Yana bu sayyoralarning ichki sayyoralardan farqi tuzilishidadir.* Ular Yer kabi qattiq bo'lmay, Quyosh va boshqa yulduzlarga o'xshab, asosan, vodorod va geliydan iborat bo'ladi. [3] *Ya'ni gigant sayyoralar shunchaki gazdan iborat sharlardir.* Shuning uchun Yupiter, Saturn, Uran va Neptun gazli sayyoralar deb ham ataladi. [4] *Ikki gigant sayyoradan tashqari barcha sayyoralarni tunda oddiy ko'z bilan ko'rish mumkin.*

22.

[0,9 ball]

Matnda **aks etgan ma'lumotni** aniqlang.

- A) Merkuriyni Quyoshga yaqin bo'lgani uchun doim oddiy ko'z bilan ko'rib bo'lmaydi.
- B) Ichki sayyoralardan biri bo'lgan Venera Yerga eng yaqin sayyora hisoblanadi.
- C) Saturn Quyosh sistemasidagi kattaligi jihatdan ikkinchi yirik sayyoradir.
- D) Gigant sayyoralar ichki sayyoralardan tarkibi jihatidan ham farq qiladi.

23.

[0,9 ball]

Matn mazmuniga **xos bo'lmagan ma'lumotni** aniqlang.

- A) Sayyoralar Quyoshga yaqinligi jihatdan ichki va tashqi sayyoralarga bo'linadi.
- B) Quyosh tizimidagi har qanday sayyorani oddiy ko'z bilan ko'rib bo'lmaydi.
- C) Ichki sayyoralarning tarkibidagi zichlik yulduzlar tarkibi zichligidan farqlanadi.
- D) Tarkibi vodorod va geliydan iborat bo'lgan sayyoralarda harorat yuqori bo'ladi.

24.

[0,9 ball]

Raqamlab ko'rsatilgan qaysi jumla matnning mazmuniy tuzilishida **uslubiy xatolikni** yuzaga keltirgan.

- A) 2 B) 4 C) 3 D) 1

Baytlarni o'qing va quyidagi topshiriqlarni bajaring.

- (1) *Yuz-u xoling g'amidin gar emasdur notavon lola,
Nedin bo'lmish hamisha siyna dog'-u bag'ri qon lola?!*
- (2) *Xijolatmand xol-u orazing ermas esa, nechun
Qo'yub gulshanni dasht-u tog' aro tutmish makon lola?!*
- (3) *Bo'yoldi qong'a g'amzang tirborondin¹ ul go'yo,
Qochib ko'hsor² g'orin anglamish dor ul-omon³ lola.*
- (4) *Chamanda xizmat uchun bir ayoqda tik turib shamshod,
Tutar yo'lingda nargisdin qo'lida shamdon, lola.*

LUG'AT: *tirboron*¹ – o'q yomg'iri; *ko'hsor*² – tog'li joylar, tog'lar; *dor ul-omon*³ – osoyishta joy, xatarsiz makon.

25.

[2,4 ball]

Baytlarning mazmuni **to'g'ri izohlangan** javobni belgilang.

- A) **1-bayt** – Lolaning yuz-u xoliga shaydo bo'lgan notavon odamlar unga ozor berib bag'rini dog' qiladilar.
- B) **4-bayt** – Chamanda bir oyoqda tik turib shamshodni intizor kutayotgan lola shamdonga qiyoslangan.
- C) **2-bayt** – Yor jamoli va qora xoli oldida mulzam bo'lgan lola gulshandan dasht-u tog'larga bosh olib ketgan.
- D) **3-bayt** – Lola tog'lardagi g'orlarga qochib borib makon tutgan bo'lsa ham, odamlar unga zulm qilib qon to'kadilar.

26.

[2,4 ball]

She'riy parchada lola guliga xos qaysi xususiyat **husni ta'lil san'ati asosida tasvirlanmagan?**

- A) ichida qora dog' borligi
- B) poyasi ingichka, tik ekanligi
- C) tog' va dashtlarda o'sishi
- D) qizil rangda bo'lishi

27.

[2,4 ball]

She'riy parchada quyidagi qaysi **o'xshatish** mavjud?

- A) Yorning adil qomati shamshod daraxtiga o'xshatilgan.
- B) Yorning qora ko'zlari nargis guliga qiyoslangan.
- C) Yorning jon oluvchi karashmalari o'qqa qiyos qilingan.
- D) Tog' bag'ridagi g'orlar lola guliga tashbeh qilingan.

28-30.

28-30. Jadvaldagi ma'lumotlardan foydalanib, 28-30-test topshiriqlariga (A-F) javob variantlarini moslashtiring.

| Topshiriqlar | Javoblar |
|--|--|
| <p>28. [1,7 ball] Imloviy xatolik kuzatilgan gapni aniqlang.</p> | <p>A) Adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov eng oliy mukofot, ya'ni "O'zbekiston Qahramoni" unvoni bilan taqdirlangan.</p> |
| <p>29. [1,7 ball] Qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik kuzatilgan gapni aniqlang.</p> | <p>B) U o'zining "O'lsam, ayrilmasman quchoqlaringdan" maqolasida eng oliyjanob tuyg'ular haqida so'z yuritadi.</p> |
| <p>30. [1,7 ball] Ishoraviy xatolik kuzatilgan gapni aniqlang.</p> | <p>C) "Savob ishlar, jumladan, Vatan ravnaqi yo'lidagi ishlar hech qachon, avvaldan tasdiqlangan ro'yxat bo'yicha qilinmaydi", – deb yozadi olim.</p> <p>D) Uning fikricha, bolaning murg'ak qalbida Vatan timsoli hali bor shakl-u shamoyilini to'la topib ulgirmagan bo'ladi.</p> <p>E) Inson hayot dohqozonida qaynar, ming bir chig'iridan o'tar ekan, Vatan qadrini yanada teran anglay boradi.</p> <p>F) Xulosa o'rnida aytish joizki, Ozod Sharofiddinov o'ychil ijodkor, sermulohazakor olim, chinakam so'z san'atkoridir.</p> |